


## 2023- yil yanvar-fevral oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida jami **4 124,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **93,7 %** ni tashkil etdi.




### 2023- yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2023- yil yanvar-fevral oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



### Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2023- yil 1-mart holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxonalar va tashkilotlar soni 10,2 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni esa, 7,1 mingtani tashkil etib, o'tgan 2022- yilning mos davriga nisbatan 1753 taga kamaygan.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 100,3 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 65,5 %) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 101,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 17,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 71,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 17,0 %). Bu qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-fevral oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 109,4 %.





**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.03.2023- yil	01.03.2022- yil	
<b>Toshkent shahar</b>	<b>7 177</b>	<b>8 930</b>	<b>-1 753</b>
tumanlar:			
Bektemir	182	205	-23
Mirzo Ulug'bek	931	1127	-196
Mirobod	808	840	-32
Olmazor	526	751	-225
Sergeli	410	484	-74
Uchtepa	440	641	-201
Chilonzor	843	1126	-283
Shayxontohur	533	701	-168
Yunusobod	847	1109	-262
Yakkasaroy	710	912	-202
Yangihayot	223	209	14
Yashnobod	724	825	-101



## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.03.2023- yil holatiga



**Ma'lumot uchun:** Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Mirzo Ulug'bek (13,0 %), Yunusobod (11,8 %) va Chilonzor (11,7 %) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 571,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 60,7 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 13,8 % ni tashkil qildi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da




● 2022- yil  
yanvar-fevral

● 2023- yil  
yanvar-fevral

**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Chilonzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **38,9 %i**), Yangihayot tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **31,0 %i**), Shayxontohur tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **30,3 %i**), Yakkasaroy tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **24,2 %**) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2022- yil yanvar-fevral
- 2023- yil yanvar-fevral


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2023-yil yanvar-fevral oylarida 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **74,5 %**i bajarilib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **7,1 %** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,8 %** ni tashkil etgan holda **3 071,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **11,7 %** ni tashkil etib, **481,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **95,8 %** ni tashkil etdi.




## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **37,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **120,4 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **0,9 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 087,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati **106,3 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **99,1 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2023- yil yanvar-fevral

56,0 %

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari jami qurilish ishlarining **56,0 %** yoki **2 310,0** mlrd. soʻmni tashkil etgan.

9,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 221,9 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi jami qurilish ishlaridagi ulushi **9,6 %** ni tashkil etdi.

76,4 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 764,0** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **76,4 %** ni tashkil etdi.

14,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **324,2** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **14,0 %** ni tashkil etdi.





## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023 - yil yanvar-fevral oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari (mlrd. so'm)
<b>Toshkent shahar</b>	<b>4 124,8</b>	<b>93,7</b>	<b>2 310,0</b>
tumanlar:			
Uchtepa	171,0	61,6	127,3
Bektemir	98,5	84,7	75,2
Yunusobod	670,3	84,0	439,4
Mirzo Ulug'bek	528,1	93,8	230,3
Mirobod	443,2	100,2	261,4
Shayxontohur	274,0	88,8	193,9
Olmazor	291,4	104,3	144,1
Sergeli	175,3	96,0	91,6
Yakkasaroy	475,5	127,2	182,2
Yashnabod	447,0	100,7	199,0
Yangihayot	116,3	73,4	99,3
Chilonzor	434,3	94,3	266,3



## Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2022- yil yanvar-fevral

22,5



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

16,2



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

61,3



Bino va inshootlarni qurilishi

2023- yil yanvar-fevral

17,0



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

17,5



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

65,5



Bino va inshootlarni qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

### ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **13,2 %** ni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **71,4 %** ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan 2022- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **109,4 %** ni tashkil qildi, ulushi esa **69,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022-yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **98,2 %** ni tashkil qildi, ulushi esa **17,8 %** ni tashkil etdi.



■ 2022- yil yanvar-fevral

■ 2023- yil yanvar-fevral




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **18,2 %** ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **48,4 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **81,8 %** ni va 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **133,9 %** ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **12,1 %** ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **48,9 %** ni tashkil etdi. **87,9 %** ulush kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **75,9 %** ni tashkil etdi.





## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral

### Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)

Yunusobod t.  
670,3

2

Yakkasaroy t.  
475,5

1

Mirzo Ulug'bek t.  
528,1

3



### Eng kichik hajm (mlrd. so'm)

Bektemir t.  
98,5

2

Uchtepa t.  
171,0

1

Yangihayot t.  
116,3

3



# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



**Toshkent shahar  
statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)*

